

AQSH-ERON GEOSIYOSIY QARAMA-QARSHILIGI VA UNING GLOBAL IQTISODIYOTGA TA'SIRI: SANKSIYALAR, ENERGETIKA BOZORLARI VA HORMUZ BO'G'OZI XAVFSIZLIGI

Sultonov Suhrob

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakulteti 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20394108>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada AQSh va Eron o'rtasidagi bir necha o'n yillik geosiyosiy qarama-qarshilikning global iqtisodiyotga ko'rsatayotgan ta'siri tizimli ravishda tahlil qilindi. 1979-yilgi Eron inqilobidan boshlangan bu qarama-qarshilik, 2006-yildan boshlab xalqaro sanksiyalar, 2015-yilda imzolangan JCPOA va 2018-yilda AQShning ushbu kelishuvdan chiqishi bilan yangi bosqichga o'tdi. Tahlil IMF, Jahon banki, EIA va UNCTAD kabi xalqaro tashkilotlarning so'nggi statistik ma'lumotlariga, shuningdek Laudati va Pesaran (2023), Farzanegan (2024) va boshqa olimlarning akademik tadqiqotlariga asoslangan.

Kalit so'zlar: AQSh-Eron qarama-qarshiligi, sanksiyalar, JCPOA, Hormuz bo'g'ozi, neft eksporti, iqtisodiy fragmentatsiya, global energiya xavfsizligi, Eron riali, inflyatsiya.

Abstract:

This article systematically analyzes the impact of decades of geopolitical confrontation between the United States and Iran on the global economy. This confrontation, which began with the Iranian Revolution in 1979, entered a new phase with international sanctions since 2006, the JCPOA signed in 2015, and the US withdrawal from the agreement in 2018. The analysis is based on the latest statistical data from international organizations such as the IMF, the World Bank, the EIA, and UNCTAD, as well as academic studies by Laudati and Pesaran (2023), Farzanegan (2024), and others.

Keywords: US-Iran standoff, sanctions, JCPOA, Strait of Hormuz, oil exports, economic fragmentation, global energy security, Iranian rial, inflation

Аннотация:

В данной статье систематически анализируется влияние многолетней геополитической конфронтации между Соединенными Штатами и Ираном на мировую экономику. Эта конфронтация, начавшаяся с Иранской революции 1979 года, вступила в новую фазу с введением международных санкций с 2006 года, подписанием СВПД в 2015 году и выходом США из соглашения в 2018 году. Анализ основан на последних статистических данных международных организаций, таких как МВФ, Всемирный банк, EIA и ЮНКТАД, а также на академических исследованиях Лаудати и Песарана (2023), Фарзанегана (2024) и других ученых.

Ключевые слова: конфронтация США-Иран, санкции, СВПД, Ормузский пролив, экспорт нефти, экономическая фрагментация, глобальная энергетическая безопасность, иранский риал, инфляция

Kirish:

XX asr uchinchi o'n yilligida global iqtisodiyotga kuchli ta'sir qilayotgan davlatlar kelishmovchiliklaridan biri AQSh-Eron qarama-qarshiligidir. AQSh va Eron o'rtasidagi bu qarama-qarshilik 1979-yilgi Eron inqilobidan keyin boshlangan bo'lib, keyinchalik yadroviy dastur bilan

bog'liq siyosiy kelishmovchiliklar sabab yanada kuchaydi (Laudati & Pesaran, 2023). Bu qarama-qarshilik nafaqat mintaqaviy xavfsizlik muammosi, balki global iqtisodiyot, xususan energiya bozorlari va xalqaro moliyaviy tizimlar uchun jiddiy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolani yozishda Eron iqtisodiyotining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (GDP, inflyatsiya, valyuta kursi, neft eksporti) bo'yicha 2011-2025 yillarga oid statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun statistik tahlil usullari qo'llanildi.

Adabiyotlar sharhi:

Makroiqtisodiy ta'sirlar bo'yicha Laudati va Pesaran (2023) o'z tadqiqotlarida sanksiyalar Eron iqtisodiyotiga strukturaviy shok sifatida ta'sir qilishini aniqladilar. Ularning SVAR (Structural Vector Autoregression) modeli bo'yicha, sanksiyalar kuchayishi bilan: neft eksport daromadlari keskin pasayishi; eron riali valyuta bozorlarida ortiqcha reaksiya ko'rsatishi; inflyatsiya oshishi; real iqtisodiy o'sish ikki chorak ichida pasayishi mumkin. Tadqiqotchilar sanksiyalar intensivligi oshishi bilan har chorakda iqtisodiy o'sish 0.9 foiz punktga (yiliga 3.6%) pasayishini aniqladilar. Sanksiyalarsiz Eron yillik o'sishi 4-5 % bo'lishi mumkin edi, lekin amalda 3% ni tashkil qildi. Bandlik va ijtimoiy ta'sirlar sohasiga oid Kelishomi (2022) tadqiqotiga ko'ra, sanksiyalar natijasida Eron ishlab chiqarish sektorida bandlik o'sishi sezilarli darajada pasaygan. Farzanegan (2024) o'rganish ishlari natijasiga ko'ra sanksiyalar Eron iqtisodiyotida import o'rnini bosish siyosatini kuchaytirgan.

Aqsh-Eron munosabatlari o'zining keyingi bosqichiga chiqqach esa olimlar tarmoqli tahlil qila boshlashdi. Zoghi Behnam (2025) esa o'z dissertatsiyasida Eron eksport tarkibining sanksiyalar tufayli o'zgarishini tahlil qildi. U BACI ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda, mamlakat-product darajasidagi panelli ma'lumotlar yordamida sanksiyalar intensivligining uzluksiz o'lchovini ishlatdi.

Xalqaro NCBI (2024) ma'lumotlariga ko'ra, sanksiyalar Eronning sog'liqni saqlash tizimiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Eron aholisining 95 % dorilari mahalliy ishlab chiqariladi, lekin ularning 50 % xom ashyalari import qilinadi. NPR (2026) xabariga ko'ra, Trump administratsiyasining "maksimal bosim" siyosati 2025-yil dekabrda Eron iqtisodiyotining to'liq qulashiga olib keldi. Kamida 7,000 kishi namoyishlar paytida halok boldi. Brandeis Universiteti (2024) tadqiqotiga ko'ra, "maksimal bosim" siyosati ikki maqsadga erisholmadi: yangi yadro kelishuvini erishish yoki Eron aholisini rejimga qarshi ko'tarish.

Asosiy qism:

2006-yildan boshlab Eron iqtisodiyotiga qarshi xalqaro sanksiyalar joriy etildi. Ushbu sanksiyalar neft eksporti, bank sektori va xalqaro moliyaviy tizimlarga kirishni chekladi (U.S. Energy Information Administration [EIA], 2024). Sanksiyalar Eron iqtisodiyotiga sezilarli makroiqtisodiy zarar yetkazdi. Masalan, 2012–2015 yillarda sanksiyalar kuchaygan davrda mamlakatning yalpi ichki mahsuloti taxminan 9% ga qisqardi (International Monetary Fund , 2021). Shu bilan birga, milliy valyuta - eron riali keskin qadrsizlandi va inflyatsiya darajasi 40% dan oshdi (World Bank, 2022). Eron iqtisodiyoti 2018-yildan boshlab AQSh sanksiyalarining qayta joriy etilishi natijasida keskin pasayishni boshdan kechirdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 6 foizga qisqargan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich deyarli 7 foizga yetdi. Natijada, 2018–2019-yillar oralig'ida umumiy iqtisodiy qisqarish 12 foizni tashkil etdi (Quincy Institute, 2025). 2017-yilda esa, aksincha, JCPOA kelishuvi ta'sirida iqtisodiy o'sish 3,8 foizni tashkil etgan edi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi fonida o'sish atigi 0,3 foiz bo'ldi. 2021-yildan boshlab qisman tiklanish kuzatilib, o'sish 4,1 foizga, 2022-yilda esa 4,4 foizga yetdi, bu

asosan neft eksportining ortishi bilan izohlanadi. 2023-yilda iqtisodiy o'sish 5,3 foiz bilan eng yuqori nuqtaga chiqdi, biroq 2024-yilda 3,7 foizgacha tushdi. 2025-yil uchun prognozlar yana pasayish ehtimolini ko'rsatib, o'sish darajasi 0,3–0,6 foiz oralig'ida bo'lishi kutilmoqda (IMF, 2025; World Bank, 2024).

Sanksiyalar Eron milliy valyutasi rialning keskin qadrsizlanishiga olib keldi. Agar 2016-yilda 1 AQSh dollari 34 000 rialga teng bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 270 000 rialga, 2022-yilda 430 000 rialga, 2023–2024-yillarda esa 750 000 rialga yetdi. 2025-yil dekabr oyiga borib esa 1 AQSh dollari 1 420 000–1 470 000 rial oralig'ida baholandi. Umuman olganda, 2020–2025-yillar davomida rial o'z qiymatining 800 foizdan ortig'ini yo'qotdi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi ham yuqori bo'lib qoldi: 2020-yilda 30,6 foiz, 2021-yilda 43,4 foiz, 2022–2023-yillarda 44–46 foiz oralig'ida bo'ldi. 2024-yilda inflyatsiya 32,5 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, 2025-yil da yana 42,4 foizga, 2026-yilda esa 40 foizdan yuqori darajada bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ayniqsa, oziq-ovqat narxlari inflyatsiyasi 2024-yil sentyabrida 58 foizga yetib, aholining real daromadlariga jiddiy bosim o'tkazdi (Anadolu Agency, 2026).

Eron iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan neft eksporti sanksiyalar sababli keskin kamaydi. 2011-yilda va 2017-yilda eksport hajmi kuniga 2,5 million barrelni tashkil etgan bo'lsa, 2018-yilda sanksiyalar qayta joriy etilgach 1,8 million barrelga tushdi. 2019-yilda bu ko'rsatkich 500–600 ming barrelgacha, 2020-yilda esa eng past daraja – 400–444 ming barrelgacha qisqardi. Keyingi yillarda nisbiy tiklanish kuzatilib, 2023-yilda eksport 1,4–1,5 million barrelga, 2024-yilda 1,47–1,61 million barrelga yetdi, 2025-yil boshida esa 1,6 million barrelni tashkil etdi. Neftdan olinadigan daromadlar ham shunga mos ravishda o'zgardi: 2017-yilda 48 milliard AQSh dollarini tashkil etgan daromad 2020-yilda atigi 5 milliard dollargacha tushib, 89 foizga kamaydi. 2024-yilda esa bu ko'rsatkich 43 milliard dollarga yetib, neft eksporti mamlakat umumiy eksport daromadlarining 57 foizini tashkil etdi.

Hormuz bo'g'ozini global energiya xavfsizligida muhim strategik ahamiyatga ega bo'lib, 2024–2025-yillarda undan kuniga taxminan 20 million barrel neft va kondensat o'tgan. Bundan tashqari, yiliga 112 milliard kub metr suyultirilgan tabiiy gaz (LNG) tashilgan. Bu hajm global neft iste'molining qariyb 20 foizini, dengiz orqali neft savdosining 27 foizini hamda global LNG savdosining 20 foizini tashkil etadi. Eksport qiluvchi davlatlar orasida Saudiya Arabistoni yetakchi bo'lib, umumiy hajmning 37,2 foizini (kuniga 5,5 million barrel) tashkil etadi. Undan keyin Iroq (22,8 foiz), BAA (12,9 foiz), Eron (10,6 foiz), Quvayt (10,1 foiz) va Qatar (4,4 foiz) joylashgan. Import qiluvchi davlatlar ichida esa Xitoy 37,7 foiz ulush bilan birinchi o'rinda turadi, undan keyin Hindiston (14,7 foiz), Janubiy Koreya (12 foiz) va Yaponiya (10,9 foiz) keladi. Umuman olganda, Osiyo davlatlari jami importning 89,2 foizini tashkil etadi (EIA, 2025).

2026-yilda mintaqadagi harbiy keskinlik global energiya bozoriga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, 28-fevral kuni AQSh va Isroil tomonidan Eronga qarshi havo hujumlari boshlandi. 4-mart kuni QatarEnergy kompaniyasi LNG eksportini “force majeure” sababli to'xtatdi. 28-mart kuni esa husiylar mojaroga qo'shilib, Bab-el-Mandeb bo'g'oziga tahdid soldi. Natijada, neft narxlari (Brent crude) 69 dollardan 74 dollargacha oshdi, Yevropa gaz bozori (TTF) narxlari esa 30 yevro/MWh dan 61,85 yevro/MWh gacha ko'tarildi.

Eronning asosiy savdo hamkorlari orasida Xitoy yetakchi o'rinni egallab, mamlakat eksportining 90 foizdan ortig'ini o'zlashtiradi. Shuningdek, Iroq va BAA ham muhim savdo sheriklari hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu davlatlar bilan savdo aloqalari eksportning 60 foizini va importning 70 foizini tashkil etadi. Mintaqadagi beqarorlik global ta'minot zanjirlariga

ham sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, sug'urta xarajatlari 10 baravarga oshdi, yuk tashish narxlarini 3–4 baravarga ko'tarildi. Yetkazib berish muddati o'rtacha 10–14 kunga cho'zildi, yoqilg'i sarfi esa 40 foizga oshdi. Bu esa global savdo samaradorligining pasayishiga olib keldi. Eron sanksiyalarga moslashish uchun turli mexanizmlarni ishlab chiqdi. Jumladan, “soya floti” orqali transponderlarsiz tankerlar yordamida neft tashish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, xalqaro to'lovlarda Xitoy yuanidan foydalanish kengaydi. Xitoyning CIPS tizimi orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2025-yilda 245 trillion yuanga yetib, 43 foiz o'sishni ko'rsatdi. Bu holat global moliyaviy tizimning fragmentatsiyasini kuchaytirayotganini anglatadi.

Xitoy Eron iqtisodiyotida muhim rol o'ynab, uning asosiy neft xaridori sifatida maydonga chiqdi. 2023 va 2024-yillarda Xitoy Eron neft eksportining qariyb 90 foizini import qilgan (EIA, 2024; TradeImeX, 2025). 2025-yilda esa bu ko'rsatkich kuniga 1,6 million barrelni tashkil etdi. Bu esa Eron iqtisodiyotining sanksiyalarga qaramay muayyan darajada barqarorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa:

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2018–2020-yillardagi “maksimal bosim” siyosati Eron iqtisodiyotini 12 foizga qisqartirgan bo'lsa-da, siyosiy tizimni o'zgartirishga erisha olmadi. Shu bilan birga, 2024-yilda neft eksportidan olingan 43 milliard dollarlik daromad mamlakatning to'liq iqtisodiy salohiyatining 40 foizidan ham kamini tashkil etadi. Hormuz bo'g'ozining global neft ta'minotidagi 20 foizlik ulushi esa uning strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, CIPS tizimining kengayishi global moliyaviy tizimning parchalanish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Shu asosda, diplomatik yechimlarga qaytish, global energiya xavfsizligini ta'minlash uchun diversifikatsiyani kuchaytirish, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni tiklash, strategik zaxiralarni oshirish hamda inson huquqlari va sanksiyalar siyosati o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarur bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Anadolu Agency (2026) *Explainer - Rising prices, falling currency: Iran's economy faces rocky road*. Mavjud: <https://www.aa.com.tr/en/economy/explainer-rising-prices-falling-currency-iran-s-economy-faces-rocky-road/3800027> (Murojaat qilingan sana: 1-aprel 2026).
2. Brandeis University (2024) *Iran After Trump*. Crown Center for Middle East Studies, Middle East Brief No. 145. Mavjud: <https://www.brandeis.edu/crown/publications/middle-east-briefs/pdfs/101-200/meb145.pdf> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
3. Clingendael (2026) *Sanctions without shock? United Nations snapback and Iran's oil exports*. Mavjud: <https://www.clingendael.org/publication/sanctions-without-shock-united-nations-snapback-and-irans-oil-exports> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
4. EIA (2024) *Country Analysis Brief: Iran*. U.S. Energy Information Administration.
5. EIA (2025) *Amid regional conflict, the Strait of Hormuz remains critical oil chokepoint*. Mavjud: <https://www.eia.gov/todayinenergy/detail.php?id=65504> (Murojaat qilingan sana: 1-aprel 2026).
6. Farzanegan, M.R. (2024) *Sanctions and import substitution in Iran*.
7. GIS Reports (2025) *Iran's diminishing influence on oil markets*. Mavjud: <https://www.gisreportsonline.com/r/iran-oil-market-influence/> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
8. IEA (2020) *World Energy Outlook 2020*. Paris: International Energy Agency.

9. IEA (2023) *World Energy Outlook 2023*. Paris: International Energy Agency.
10. IMF (2021) *World Economic Outlook*. Washington, DC: International Monetary Fund.
11. IMF (2025a) *World Economic Outlook, October 2025*.
 Mavjud: <https://www.imf.org/en/publications/weo/issues/2025/10/14/world-economic-outlook-october-2025> (Murojaat qilingan sana: 2-aprel 2026).
12. IMF (2025b) *World Economic Outlook Update, January 2026*.
 Mavjud: <https://www.imf.org/en/publications/weo/issues/2026/01/19/world-economic-outlook-update-january-2026> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
13. Iran International (2024) *Iran's oil exports drop amid China energy shift and Trump comeback*. Mavjud: <https://www.iranintl.com/en/202412032803> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
14. Kelishomi, A. (2022) *Impact of sanctions on employment in Iran's manufacturing sector*.
15. Laudati, D. and Pesaran, M.H. (2023) *Identifying the effects of sanctions on the Iranian economy using newspaper coverage*. Cambridge Working Papers in Economics No. 2155. Cambridge: University of Cambridge.
 Mavjud: <https://www.econ.cam.ac.uk/publications/cwpe/2155> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
16. Middle East Eye (2026) *How US sanctions and external threats destroyed Iran's economy*.
 Mavjud: <https://www.middleeasteye.net/news/how-us-sanctions-external-threats-destroyed-irans-economy> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
17. NCBI (2024) *The impact of economic sanctions on health and strategies for mitigation: A glance at the case of Iran*.
 Mavjud: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC12440346/> (Murojaat qilingan sana: 1-aprel 2026).
18. NPR (2026) *Trump's sanctions on Iran have dramatically affected its economy and led to protests*.
 Mavjud: <https://www.npr.org/2026/02/23/nx-s1-5708935/trumps-sanctions-on-iran-have-dramatically-affected-its-economy-and-led-to-protests> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
19. Open Magazine (2026) *China's Kill Box - The Strait of Hormuz*.
 Mavjud: <https://openthemagazine.com/columns/chinas-kill-box-the-strait-of-hormuz> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
20. Quincy Institute (2025) *The economic dimensions of a better Iran deal*.
 Mavjud: <https://quincyinst.org/research/the-economic-dimensions-of-a-better-iran-deal/> (Murojaat qilingan sana: 1-aprel 2026).
21. SpeedCommerce (2026) *What is shipped through the Strait of Hormuz?* Mavjud: <https://www.speedcommerce.com/insights/what-is-shipped-through-the-strait-of-hormuz/> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
22. Statista (2026) *Quarter of maritime oil trade flows through Strait of Hormuz*.
 Mavjud: <https://www.statista.com/chart/35914/destination-maritime-crude-oil-strait-of-hormuz/> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
23. TradeImeX (2025) *Iran oil export data 2024–25*.
 Mavjud: <https://www.tradeimex.in/blogs/iran-oil-export-data-by-country-and-production-stats> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
24. UNCTAD (2024) *Review of Maritime Transport 2024*. Geneva: United Nations.

25. UNCTAD (2025) *Maritime trade under pressure – growth set to stall in 2025*. Mavjud: <https://unctad.org/news/maritime-trade-under-pressure-growth-set-stall-2025> (Muroja at qilingan sana: 2-aprel 2026).
26. Visual Capitalist (2026) *Chartered: Oil trade through the Strait of Hormuz by country*. Mavjud: <https://www.visualcapitalist.com/charted-oil-trade-through-the-strait-of-hormuz-by-country/> (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
27. Wikipedia (2026) *Economic impact of the 2026 Iran war*. Mavjud: https://en.wikipedia.org/wiki/Economic_impact_of_the_2026_Iran_war (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).
28. World Bank (2022) *Iran Economic Monitor*. Washington, DC: World Bank.
29. World Bank (2024) *Iran: Poverty and human capital*. Mavjud: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099110623175541902/pdf/P1777150fa1dcd02108b55086af5f3268f5.pdf> (Murojaat qilingan sana: 2-aprel 2026).
30. Zoghi Behnam (2025) *The impact of economic sanctions on Iran's export composition*. Master's thesis. Central European University. Mavjud: https://www.etc.edu/2025/zoghi_behnam.pdf (Murojaat qilingan sana: 3-aprel 2026).